MUSTAFO KAMOL OTATURKNING HARBIY FAOLIYATI

Yusupova Iqbol Bahodirovna
Navoiy davlat universiteti
Tarix kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24044147

Anotatsiya. Ushbu maqolada Turkiya xalqi uchun ma'naviy rahnamo, butun turklarning "Millat otasi" deya ta'riflangan Mustafo Kamolning butun umri davomida harbiy sohaga qizishi va shu qiziqishi yetaklagan hayot- uning qismati va millat taqdirini hal qilishga qodir inson qilib tarbiylagani haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: "Kamolchilik", Kamol-komil,milliy birlik, harbiy akademiya, Vatan va ozodlik", harbiy attashe ,"Yosh turklar".

Mustafo Kamol Otaturk o'z qarashlarida shunday fikrni ilgari surgandi: **«Erk taqchilligi bor joyda hamma narsa taqchildir. Hamma narsa davlatniki deyilgan joyda xalq yupun, och, qashshoq va gadodir. Shaxsiy manfaat bo'lmagan joyda esa yuksaklik va taraqqiyot bo'lmaydi»**[1].

Turkiy xalqlarning buyuk farzandi, Turkiya Respublikasining asoschisi va 1- prezidenti Mustafo Kamol Otaturkning hayot yo'li va faoliyati tarixning o'ta murakkab hamda suronli,sinovli yillarida o'tdi. Mustafo Kamolning otasi Ali Rizo afandi 1839-yilda tavallud topib,dastlab diniy jamg'armalarni nazorat qiluvchi rasmiy shaxs vazifasida ishlab, so'ngra 1876-1877- yillarda (rus-turk urushidan oldin) mahalliy bo'linmalarda harbiy leytinant bo'lib xizmat qilgan. Onasi Zubayde xonim 1857-yilda Salonikaning g'arbidagi Langaza shahrida badavlat dehqon oilasida tug'ilgan, kelib chiqishi Karmandan Rumeliyaga ko'chib o'tganlar avlodiga borib taqaladi.

Mustafo Kamol dastlab litseyda (Salonika harbiy maktabi)da 1893-yildan boshlab tahsil ola boshlaydi. U maktabda o'zini qobiliyatli va salohiyatli, kelajagi porloq o'quvchi sifatida ko'rsata oldi. Ayniqsa, matematika fanidan o'z tengdoshlaridan ancha ilgarilab ketdi. Matematikadan tahsil bergan o'qituvchisi, kapitan Mustafo Sabri Bey unga "Kamol" deb nom berdi. 14 yoshida "Kamol" nomini olgan Mustafo (bu nom "komil", "yetuk" ma'nolarini bildiradi) 1896-yilda Manastir harbiy maktabiga o'qishni davom ettirib, 1896-1899-yillarda makatbning tarix o'qituvchisi, podpolkovnik Mehmet Bey unga tarix faniga nisbatan ulkan qiziqish uyg'ota olgan va mashg'ulotlarga ishtiyoq bilan shug'ullanishida muhim rol o'ynadi. Shuningdek, fransuz tili kurslariga qatnashib franzus tilini chuqur o'rgandi. 1899-yil 13-martda Istanbuldagi imperatorlik harbiy akademiyasiga o'qishga kirdi. 1902-yildan Bosh shtab akademiyasida o'qishni davom ettiri, 1904-yilda bu o'quv dargohini kapitan harbiy unvoni bilan muvafaqqiyatli tugatdi[2:189].

Mustafo Kamol Bosh harbiy shtab akademiyasini tugatishi bilan 1905-yildan harbiy xizmatga olindi. U 1905-1907-yillarda Damashq (Suriya)da Lujori Mufit Bey qo'mondonligidan 5-armiyaning piyoda, otliq artilleriya bo'linmalarida xizmat qildi. U dastlabki davrdanoq, o'zining harbiy intizomi, habriy mashqlardagi mahorati va taktik itoatkorligi bilan qo'mondonlik nazariga tushdi. Lujori Mufit Bey bilan birga ilg'or fikrli zobitlar orasida faoliyat olib borgan. "Vatan va hurriyat" ("Vatan va ozodlik") jamiyatini tuzdi.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Harbiy boshliq pillapoyalaridan tez ko'tarilgan Mustafo Kamol 1907-yil 20-iyunda Katta kapitan, 1907-yil 13-oktyabrda 3-armiyaning shtab zobiti lavozimini egalladi.U tuzgan "Vatan va ozodlik" jamiyati Turkiyadagi ta'sirchan "Ittifoq va taraqqiyot" qo'mitasi tarkibiga kirdi,Mustafo Kamol ham 1907-yildan boshlab shu qo'mita a'zosiga aylandi. 1908-1909-yillarda parlamentchilik harakatini boshlagan "Yosh turklar" tashkilotiga ham Mustafo Kamol qiziqish bildirdi.

Konstitutsiyaviy hukumat uchun kurash boshlagan progressiv turk ziyolilari va zobitlarining chiqishlari Mustafo Kamol ongiga o'z ta'sirini o'tkazdi.U o'z harbiylari bilan Abdulhamid II (1876-1909 yy) "zulm" rejimini ag'darish uchun 1909-yil 19-aprelda brigada generali Mahmud Shevket posho qo'shinlari tarkibida Istanbulga kirdi.Keyinchalik "Yosh turklar" hukuhmati yillarida 3-armiya shtab boshlig'i, 3-armiya zobitlarini tayyorlash maktabi qo'mondoni, 5-korpus shtab boshlig'i, 38-piyoda polkinining qo'mondoni lavozimlarida faoliyat yuritdi. Mustafo Kamol 1911-yil 27-sentyabrda Istanbul Bosh shtab boshqaruvi a'zosi bo'ldi.

Mustafo Kamol 1911-1912; 1912-1913-yillarda I va II Bolqon urushlarida ishtirok etdi. Bolqon urushlaridan so'ng 1913-yil 27-oktyabrda uni Sofiya (Bolgariya) harbiy attashe (bu bir davlatning mudofaa vazirligi yoki qurolli kuchlari tomonidan boshqa davlatdagi elchixonaga tayinlanadgigan rasmiy harbiy vakil) etib tayinlashdi. U Bolgariyada attashe bo'lib turganida 1914-yil 1 martda podpolkovnik harbiy unvonini oldi.

Mustafo Kamol Birinchi jahon urushiga jalb etilib,ilk bor Bobruk yaqinida harbiy to'qnashuvlarda 1914-yil 22-dekabrda ishtirok etdi. Kavkaz frontidagi janglar turklar uchun muvafaqqiyatsiz chiqqan bo'lsa-da,1915-yil 28-dekbarda uni jasorati uchun Germaniya imperatorikayzer Vilgelm II "Temur xoch" ordeni bilan taqdirllagandi. Mustafo Kamolning Birinchi jahon urushi yillarida harbiy unvoni oshib,1916-yil 1-aprelda general, ko'p o'tmay Diyorbakrda posho unvonlariga sazovor bo'di.

Mustafo Kamol Usmonli hukmdorlar davrida harbiy harakatlardagi jasorati uchun "Oltin qilich", "Majidiya" ordeni bilan taqdirlandi. Posho unvonidan so'ng, "g'oziy"(tolib) deb ataladigan bo'ldi.

Mustafo Kamol Otaturk Turkiya Respublikasiga asos solar ekan o'z oldiga zamonaviy, progressiv tamoyillarga tayangan dunyoviy va milliy davlatni barpo etish vazifasini qo'ydi. Shu sababli "turkchilik" g'oyasini ilgari surdi. Uning turkchilik g'oyasi millatchilik tamoyillariga asoslangan bo'lib, uning millatchiligi yangilangan, sog'lom hayotiy va zamonaviy rivojlanish istiqbollariga qaratilgan edi. Millat ravnaqi va rivojiga esa Respublika boshqaruvi orqali borish mumkinligiga unda ishonch kuchli edi [3:15].

Mustafo Otaturkning harbiy san'atga qo'shgan hissasi shundaki, u harbiy g'alabani faqat qurolli to'qnashuv natijasi deb bilmay, uni milliy iroda va iqtisodiy-siyosiy imkoniyatlarning bir butun majmui sifatida baholadi. Uning harbiy-qo'mondonlik faoliyati natijasida nafaqat Turkiya hududiy yaxlitligi va mustaqilligi saqlab qolindi, balki yangi dunyoviy va respublika tuzumidagi modernizatsiyalashgan davlat barpo etilishiga shart-sharoit yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mustafo Kamolning maqbarasidagi (Anqara shahridagi Anitkabir majmuasi devoriga oltin harflar bilan o'yib yozilgan. 2026 yil 28-avgustda professor Sh. Hayitov tomonidan yozib olingan).
2. Sh. A. Hayitov. "Biz bilmagan Turkiya:Anqara va Konyada besh kun". Monografiya. 2026 yil. 30b.
3. Ziyo G'okalp. Turkchilik asoslari. -Toshkent,1991.-B.-15.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.